



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЙ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,  
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



4. Umarova S. "Majolis un-nafois"ning ilmiy-tanqidiy matni xususida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2010, 2-son. – 49–53-b.
5. Xalilova M. "Majolis un-nafois"ning forsiycha uchinchi tarjimasini // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2000, 2-son. – 51–53-b.
6. G'aniyeva S. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasi va samarqandlik shoirlar // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1970, 6-son. – 24–28-b.
7. G'aniyeva S. "Majolis un-nafois"ning forsiy tarjimasidagi ba'zi ilovalar haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1964, 2-son. – 64–67-b.
8. G'aniyeva S. Navoiyning "Majolis-un nafois" asari ta'sirida yozilgan tazkira // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1963, 5-son. – 60–68-b.

## YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI

**Avezova Maktuba To'rayevna**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
O'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti  
Maktubaavezova87@gmail.ru*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hikmatnavislik asoschisi Ahmad Yassaviy hamda uning izdoshlaridan bo'lgan Qul Ubaydiyning hikmatlaridagi ayrim mavzularga to'xtalib, ifoda usuli, badiiy mahorati qiyoslanib, tahlilga tortiladi. Xususan, ilohiy ishq, Allohning birligi, mutlaq irodasi va qudrati hikmatlarda qanday aks etilgani tadqiq qilindi. Ubaydiy Yassaviy an'anasini davom ettirgani holda mushtarak mavzularga o'ziga xos yondashuvi, shoir induvidualizmi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** *Yassaviy, Ubaydiy, hikmat, ilohiy ishq, tavhid, induvidualizm, asma'ul husna.*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются отдельные темы в мудростях основоположника жанра хикматов Ахмада Ясави и его последователя Кул Убайдия, проводится сравнительный анализ их выразительных средств и художественного мастерства. В частности, исследуется, как в хикматах отражаются темы божественной любви, единства Аллаха, Его абсолютной воли и могущества. Также рассматривается индивидуальный подход Убайдия к общим темам при продолжении традиций Ясави, раскрываются особенности поэтического индивидуализма автора.

**Ключевые слова:** Ясави, Убайдий, хикмат, божественная любовь, тавхид, индивидуализм, асма аль-хусна.

**Annotation:** This article explores specific themes found in the wisdom poetry (hikmats) of Ahmad Yassawi, the founder of the hikmat tradition, and his follower Qul Ubaydi. It presents a comparative analysis of their expressive style and artistic mastery. In particular, the study examines how divine love, the oneness of Allah, and His absolute will and power are reflected in their works. The article also discusses Ubaydi's individual poetic approach to shared themes, continuing Yassawi's tradition while showcasing his own literary individuality.

**Keywords:** Yassawi, Ubaydi, hikmat, divine love, tawhid, individualism, Asma'ul Husna.

Turkiston xalqining shayx ul-mashoyixi bo'lgan (Alisher Navoiy ta'rifi) Xoja Ahmad Yassaviy Yassaviya tariqatiga asos solib, tasavvufni she'riyatga olib kirgan bo'lsa, Shayboniylar davrining yetuk namoyondasi shoh va shoir Ubaydullaxon Yassaviy yaratgan hikmatnavislik an'anasini davom ettirib, bu janrga yangicha hayot bag'ishladi. Yassaviyga izdosh shoirlarning tajribalari



inobatga olinmaganda, XVI asrga kelib adabiyotimiz tarixida bevosita Yassaviy an'anasini davom ettirgan ijodkorlar deyarli uchramaydi. Bu davrda Chig'atoy adabiyoti gullab-yashnagan, hikmat aytish va yozish faqatgina tor :ralardagina saqlanib qolgan edi. Shayboniylarning Movarounnahrda kirib kelishi, xususan, Shayboniyxon va uning jiyani Ubaydullaxonning badiiy ijod bilan shug'ullanishlari tufayli Ahmad Yassaviy shaxsiyati va ijodiga qiziqish qayta jonlandi. Hatto Muhammad Shayboniyxonning o'zi ham ulug' tariqat peshvosidan ilhomlanib, bir qancha hikmatlar yozgani manbalarda qayd etilgan. Bolaligidanoq Qur'on va hadis ilmini puxta egallagan Ubaydullaxon esa bu janrning qayta takomillashuvi va xalq orasida ommalashuviga turtki bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Turkigo'y mutasavvif shoirlar hayoti va ijodini tadqiq qilgan turk olimi Fuat Ko'prulu Ubaydiyini "Qiroati qur'on, tafsir, hadis va fiqh kabi islomiy ilmlarni mukammal egallagan, arabcha va forsiyini she'r yozish darajasida yaxshi bilgan, badiiy san'atlarga kuchli qiziqish ko'rsatgan, hatto naqqosh va musiqashunos" ma'rifatli shoh va talantli shoir sifatida ta'riflagan edi<sup>26</sup>.

Yassaviyshunos olim Ibrohim Haqqul hikmatlarni tabiiy, riyoziy va ilohiy kabi uch turga bo'lib, Yassaviy hikmatlarining uchinchi turga mansubligini e'tirof etadi: "Yassaviy hikmatlarining bosh sharti olam sir-asrorini odamning o'zini anglashi orqali kashf etilishidir. Ubaydiy ham hikmatnavislikda shu yo'lni tanlagan desak, xato bo'lmaydi".<sup>27</sup> Darhaqiqat, g'oyaviy mazmun, tematik jihatdan ikkala shoir hikmatlarida o'xshashliklar bisyor. Ammo ijodkorlarning hikmat yozishdagi o'ziga xos tomonlari ham borki, bunga alohida e'tibor qaratmoq lozim.

"Devoni hikmat"da vazn, qofiya, ifoda turlari va uslub xususiyatlari" maqolasida turk olimi Idris Karakus Yassaviy hikmatlarini mavzu jihatdan tasniflaydi. Unga ko'ra devondan o'rin olgan munajat, na't va madhlardan tashqari, boshqa hikmatlarda zikr etilgan mavzular quyidagicha:

- Ilohiy ishq;
- Allohning birligi, mutlaq irodasi va qudrati;
- payg'ambarlarning sha'ni va sevgisi, sunnat;
- zohidlik va taqvo;
- ibodat, islom axloqi, islomiy rivoyatlar;
- oxirat, qiyomat, jannat va jahannam tasvirlari;
- dunyodan zohidona shikoyat, darveshlik fazilatlar;
- diniy urf-odatlar;
- islomiy so'fiylarning qissalari;
- zikr va hol kabi yassaviylik tariqatining odob va odatlari masalalari.[3]

Ilohiy ishq, Allohning birligi ya'ni tavhid, uning mutlaq irodasi va qudratini madh etish hikmatlar mavzusining asosiy qismini tashkil etadi. Quyida ana shu

<sup>26</sup> M.F.Ko'prulu. Adabiyotga doir tadqiqotlar. 2-jild. – Istanbul. 1989.169-bet.

<sup>27</sup> Ubaydiy. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar M.H.Abdullayev, J.Abdullayev. – Toshkent: Movarounnahr, 2020. 4-b.



mavzular bo'yicha ikkala ijodkor hikmatlarining ifoda uslubi va badiiy tasvir mahoratini ko'rib chiqamiz.

Ahmad Yassaviy hikmatlaridan birida ilohiy ishqqa shunday ta'rif beradi:

*Ishq maqomi turluk maqom, yetib bo'lmas,  
Boshdin ayoq jurmu isyon, ketib bo'lmas,  
Malomatlar, ihonatlarni etib bo'lmas,  
Lomakonda Haqdin sabaq oldim mano*<sup>28</sup>.

**Lug'at:**

**Jurmu isyon** – gunoh va itoatsizlik;

**Ihonat** – xo'rlash, kamsitish, haqoratlash:

**Lomakon** – bu makondan tashqari bir olamda, ruhoniyyatda, karomat, rahmoniy ilhom bilan.

Ushbu hikmat shoirning boshqa ko'plab hikmatlari qatori o'n ikki bo'g'inli hijo – barmoq vaznida bitilgan. Shoir unda ishqning turli maqomda ekani, unga har kim ham yetib olmasligini, inson boshdan oyoq gunohu ma'siyatga botganini, isyonkor ekanini ta'kidlab, oshiq ahlini malomat qilmang, kamsitmang deya uqtirsa, shoir Ubaydiy aksincha:

*Ishq ahli kibi bo'lma malomatsiz, ayo, kim,  
Oshiqqa malomat bor erur yaxshi alomat.  
Zohid kabi oshiqqa nadomat tilamangkim,  
Oshiqda malomatduru zohidda nadomat.*[5]

She'rdagi "ishq, oshiq, zohid" so'zlari – tanosub san'atini yuzaga chiqargan bo'lsa, malomat va nadomat, oshiq va zohid so'zlarining takrorlanib kelishi takrirning namunasidir. Oshiq ahli o'zini malomat qilishi, o'zidan, qilayotgan amallaridan ko'ngli to'lmasligi, gunohlaridan qo'rqib nadomat chekishi nafsiy poklanishning bir belgisidir. Ubaydiy ana shunga ishorat qilib, malomat-u nadomat tuyg'usi oshiqlarda bo'lishi lozim deya uqtirmoqda. "Malomat – solikning kibru-havoga berilmaslik uchun o'z nafsini malomat qilishi. Malomatiylik tariqatida nafsni malomat qilish bosh maqsad hisoblanadi". [6]

Yassaviy yuqoridagi 8-hikmatining keyingi satrlarida ishqni podshoh, oshiqni faqirga o'xshatib, "Ey yoronlar, ishq dardig'a davo bo'lmas, to tiriksan ishq daftari ado bo'lmas" deya xulosa yasagan bo'lsa, Ubaydiy boshqa bir hikmatida ishqqa muhtalo oshiq holatini quyidagicha ta'riflaydi:

*Haq ishqining telbasi telbalikda yetaro,  
Qamchi qilib yilonni, tutub arslon minaro.*

Haqiqiy ishq sharbatidan totgan inson telbasifat bo'lib qolishi, bu dunyoni butkul unutib, faqat va faqat Haq taolo yodi bilan yashashini, bunday sarmastlikda hatto ilonni qamchidek o'ynatib, arslon mina olish darajasida qudratli bo'lishiga ishora qilmoqda. Yoki yana bir baytda shoir Ubaydiy ishqni ta'riflay turib, oshiqqa xos sifatlarni keltiradi:

<sup>28</sup> Xoja Ahmad Yassaviy. Umrimg yeldek o'taro. (Nashrga tayyorlovchi Ibrohim Haqqul). - Toshkent: Muharrir, 2020. 31-b.



*Haq vaslig'a kim yetgay aroda ishq o'lmasa,  
G'ayrni kim tark etgay aroda ishq o'lmasa.  
Oshiq kishi mard o'lmas, mardon ichra fard o'lmas,  
Boshtin – ayoq dard o'lmas aroda ishq o'lmasa.*

Haqning vaslig'a yetishmoq, g'ayr – o'zga narsalardan kecha olmoq uchun ham insonga ishq kerak. Bunday mazmun ba'zan "Mosivalloh" (Haqdan o'zga narsalar) so'zi bilan har ikki ijodkor hikmatlarida tez-tez uchrab turadi. Masnaviy shaklida yozilgan ushbu hikmatning yuqoridagi ikki misrasi "*mard, fard, dard*" so'zlari bilan qofiyalanishi uning musiqiy ohangini kuchaytirgan. Shuningdek, tazod (boshtin-ayoq), tanosib (ishq, oshiq, dard) kabi ma'naviy san'atlarning mohirlik bilan qo'llangani baytning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilgan.

Umuman qofiya haqida gap ketganda, Ubaydiy hikmatlarida mutlaq qofiyadan foydalanish asosiy o'rinda turadi, hatto ikkilik shaklida yozilgan aksariyat hikmatlarida ichki qofiyalanish yuqori. Shoir ma'no-mazmunga katta e'tibor bergani holda shakl mukammalligini ham nazardan qochirmaydi. Yassaviyda esa hikmatlar qofiyalanishiga ko'ra biroz erkin. Ya'ni xalq og'zaki ijodiga yaqin bu sodda to'rtliklarda mutlaq qofiya bilan birga muqayyad qofiya ham talaygina.

*Ishq bozori ulug' bozor, savdo harom,  
Oshiqlarga sendin o'zga g'avg'o harom,  
Ishq yo'lig'a kirganlarga dunyo harom,  
Har ne qilsang oshiq qilg'il parvardigor!*

Savdo, g'avg'o, dunyo – so'zlari "o" tovushi orqaligina bir-biriga bog'lanib, muqayyad qofiya vazifasini o'tamoqda. "Ishq bozori" – istiora, "bozor, savdo, dunyo" hamda "Ishq, oshiq" so'zlari tanosubning go'zal namunasidir. Ishqning bozorga o'xshatilishi – ko'chma ma'noda ish, maslak, yo'nalish yoki yo'lni anglatga, bu bozorda savdo harom ekani – Allohni hech bir tamalarsiz, hech narsa kutmasdan, umid qilmasdan sevishtirish lozimligi uqtirilgan holda o'tkinchi hoyu-havaslarning barchasi bekor, chin oshiqlarga O'zidan boshqaning g'avg'osi harom demakdir. Ishqni bunday sifatlash Navoiyda ham mavjud. "G'aroyib ussig'ar"dan o'rin olgan ikkinchi g'azalning matla'siga e'tibor qaratamiz:

*Zihe husnung zuhuridin tushib har kimga bir savdo,  
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g'avg'o.* [4: 13]

Lug'at:

**Zihe** – ofarin, qoyil, ajoyib;

**Zuhur** – ko'rinmoq, namoyon bo'lmoq;

**Savdo** – hoy-u havas, devonalik;

**Kavnayn** – ikki dunyo;

*Bayt mazmuni:* Ofarin ey (Robbim) jamoling namoyon bo'lgach, barchaning boshiga sening ishqing savdosi tushdi. Bu savdo – tashvish, orzu-istaklardan ikki olam bozorida yuz g'avg'o va g'alayonlar yuz berdi.

Navoiy ushbu misralarni Yassaviydan ilhomlangan holda bitgan bo'lishi mumkin. Har ikki shoirda ham mazmun bir – Haq vaslini tilagan kishi Uning



o'ziga chin oshiqlik qilishi, U yaratgan narsalardan butkul ko'ngil uzishi lozim. Ubaydiyning 102-hikmatida kelgan mana bu bayt ham mohiyatan ayni g'oyalarni ifodalaydi.

*Gar ko'ngul ko'zgusida ko'rmak tilarsiz aksini,  
Mosivalloh zangin ondin, avvalo, zoyil qiling.*[5: 94]

**Zoyil** – ketkizuvchi, uzoqlashtiruvchi.

Allohni jamolini ko'rmoq – biz bilgan odatiy ko'rishdan butkul farqli ravishda ko'ngil ko'zgusi (istiora) ila amalga oshirilarkan, bunday sharaftga erishmoq uchun oshiq “Mosivalloh zangi” ya'ni Ollohdan o'zga narsalarning havasini ko'ngildan ketkazishi, butun vujudi -yu shuuru bilan Haq jamolini istashi lozim.

*Mahabbatning sharobidin ichgan kishi,  
Sakkiz uchmoh sharobini qo'lga olmas.  
Ruhoniylar xilvatig'a engan kishi  
Nafsoniylar suhbatig'a o'zin solmas.*[5: 82]

Ushbu misralardan ham ayonki, ilohiy muhabbat sharobidan (istiora) mast bo'lgan kishiga sakkiz jannatning havasi aslo ahamiyatsizdir.

Ubaydiy devonidan o'rin olgan ushbu 82-hikmatda shoir mutlaq qofiya (olmas – solmas) qo'llash barobarida, “Ruhoniylar xilvati – Nafsoniylar suhbatig'a” deya tazodlantirish bilan ichki qofiyaga ham urg'u bergan.

Aslida Sharq shoirlari ijodida tashbeh, istiora, mubolag'a, talmeh va takrir san'ati qo'llanilmagan asarlarni topish mushkul. Yassaviy ham, Ubaydiy ham bu san'atlardan mohirlik bilan foydalangan. Yassaviyda “Muhabbat jomi”, “ishq bobi”, “muhabbat daryosi”, “ishq bog'i”, “sadaf yanglig' ishq”, “muhabbat bozori”, “ishq kimyoyi ahmar” (qizil) kabi sifatlashlar mavjud bo'lsa, Ubaydiy ishqni “mahabbat niholi”, “ishq jomi”, “mahabbat sharobi”, “ishq vodiysi”, “ishq o'ti”, “mahabbat bo'stoni”, “ishq dori” kabi istioralar bilan ifodalaydi.

Allohning birligi yu borligini madh etuvchi hikmatlar, tavhid ruhi bilan sug'orilgan misralar har ikkala shoir ijodida ko'p uchraydi. Yassaviydan farqli o'laroq, Ubaydiy she'riyatida Allohning 99 ismi – Asma'ul Husnaga murojaat ko'proq ko'zga tashlanadi. “Yo Rabbano, Antal – g'ofur ur – rohim, Antal – alimul – hakim, halimul – karim, qaviyyul – azim, sami'ul – alim” – bular Qur'on oyatlari so'ngida tez-tez takrorlanib keluvchi Allohning sifatlarini ifodalagan ismlar bo'lsa, shoir boshqa hikmatlarida “Subhon, Rahmon, G'affor, Fattoh, Yazdon, Sattor, Mannon” deya ilohiy ismlarni aytib Yaratganga munojot qiladi.

Yassaviyda esa ko'proq “Yo Rabbano, Xudovando, Biru Borum, Haq, Alloh, Yo Ilohi, Mavlom ...” deya Allohga xitoblanish yuqori. Shuningdek, har ikkala shoirda ham Qur'on oyatlaridan aynan parcha keltirgan holda she'r bog'lash, oyat, hadislar ilmini sharhlash asosiy mazmun kasb etsa, ifodaviy yondashuv va uslub jihatidan talaygina farqlar ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Ubaydiy zamonasining yetuk olimi va shoiri, kuchli davlat arbobi bo'lish barobarida piri Ahmad Yassaviyning hikmatnavislik maktabi an'anasini davom ettirib, uning tadrijiga munosib hissa qo'sha olgan iste'dodli ijodkorlardan biridir. Ikki shoir hikmatlari qiyosi natijasida shu



ma'lum bo'ldiki, ilohiy ishq mavzusi har ikki ijodkor hikmatlarida bosh planga chiqarilgan, ammo ifoda, tasvir va uslub jihatidan talaygina farqlanishlar ko'zga tashlandi. Badiiy san'atlardan foydalanish, qofiya ilmiga to'liq amal qilish Ubaydiyda yaqqol ko'zga tashlansa, Yassaviyda sodda va xalqona uslub yetakchilik qiladi. Ammo mazmun va mohiyat o'sha-o'sha, Yassaviyning o'lmas merosi asrlar davomida ko'plab ijodkorlarning ilhom manbayi o'laroq ilohiy ishq, ilm-u irfonni tarannum etishda hikmat janrining shakllanib borishiga asos bo'ldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva M. Mumtoz tarixiy poetika. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023. – 366 b.
2. Fitrat A. Ahmad Yassaviy. Tanlangan asarlar. (Nashrga tayyorl. H.Boltaboyev). 2-jild. — Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
3. Karakus I. Divan-i hikmette vezin, kafiye, anletim turleri ve uslub ozellikleri. Yayin. Tanitmalari. // <https://dergipark.org.Tr/Tr/download/Issue-File/19336>
4. Navoiy A. G'aroyib us-sig'ar. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
5. Ubaydiy. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar, so'z boshi muallifi M. Abdullayev, J. Abdullayev. – Toshkent: Movorounnahr. 2020. – 444 b.
6. Xoja Ahmad Yassaviy. Umring yeldek o'taro. (Nashrga tayyorlovchi Ibrohim Haqqul). – Toshkent: Muharrir, 2020. – 400 b.

**DOI:** 10.52773/tsuull.conf.2025/ONLT1131

### **TÜRK HALK HİKAYELERİNDE ANLATI YAPISI**

**Мухаббат Масадикова Гайбуллаевна**

*Түрік тілі мен әдебиеті бөлімінің оқытушысы,  
Қожа Ахмет Ясауи атындағы Халықаралық қазақ-түрік университеті,  
Түркістан қ-сы, Қазақстан  
[mukhabbat.masadikova@ayu.edu.kz](mailto:mukhabbat.masadikova@ayu.edu.kz)*

**Қойшыбай Арайлым**

*Қожа Ахмет Ясауи атындағы Халықаралық қазақ-түрік университеті,  
Филология факультеті, 4-курс Түрік тілі бөлімі, ФТФ-111 тобының  
студенті  
[koishybaevaa005@mail.ru](mailto:koishybaevaa005@mail.ru)*

#### **Аңдатпа**

Бұл мақала түрік халық хикаяларының баяндау құрылымы мен тақырыптарына арналған. Халық хикаялары — махаббат, батырлық және мистикалық элементтер араласқан, халық мәдениетінде айрықша орын алатын бай баяндаулар. Мақалада хикая бөлімдері: фасыл, төсеме, негізгі оқиға және бата бөлімдері деп бөлініп, баяндаушы түрі мен баяндау ерекшеліктері қарастырылған. Сонымен қатар, хикаялардағы кейіпкерлер типтері мен олардың қызметтері анықталып, қолданылған мотивтер мен жиі кездесетін тақырыптар (махаббат, батырлық, айырылысу, адалдық т.б.) талданған. Қорытындысында, халық хикаялары — түркі қоғамының әлеуметтік



|                                                                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>DÜŞÜNCELER</b>                                                                                                                   |     |
| <b>Rahmonova Shahlo Rashidovna. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAOL AYOL TASVIRI</b>                                                     | 135 |
| <b>Abdullayeva N.M. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI</b>                                                   | 144 |
| <b>Заки Арсланович Алибаев. СОВРЕМЕННАЯ БАШКИРСКАЯ ПОЭЗИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ</b>                                      | 150 |
| <b>Акжолова Таңнура Нурбековна. КАРЫЛАРГА БОЛГОН МАМИЛЕНИН ЖОМОКТОРДО КАМТЫЛЫШЫ</b>                                                 | 158 |
| <b>Begmatova Dildora Abdunematovna. MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI AYRIM MAQOLLAR TASNIFI</b>             | 163 |
| <b>Erkinova Madinaxon Umid qizi. XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI</b>                           | 171 |
| <b>Mansurova Yulduz Faxriddinovna. MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI</b>                                              | 175 |
| <b>Nizomjonova Durdona Nizomjonovna. TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNIYNING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)</b>         | 179 |
| <b>Qurbonboyeva Mohidil Isroil qizi. "ARBAIN" VA "NAZM UL-JAVOHIR" DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA</b>               | 184 |
| <b>Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi. O'ZBEKISTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI</b>                                                   | 189 |
| <b>Avezova Maktuba To'rayevna. YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI</b>                                           | 193 |
| <b>Мухаббат Масадикова Гайбуллаевна, Қойшыбай Арайлым. TÜRK HALK HİKAYELERİNDE ANLATI YAPISI</b>                                    | 198 |
| <b>Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna, Almanova Sumbula Usmanovna. ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI</b>                    | 205 |
| <b>II SHU'BA. HOZIRGI TURKIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI</b>                                                                |     |
| <b>Ravshanxo'ja Rasulov. TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK</b>                                                                           | 213 |
| <b>Mirzaqulov Tursunali O'tayevich. TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA</b>                      | 218 |
| <b>Е.М. Молдасанов, Абдувалитов Н.Б. АНА ТІЛІНІҢ СӨЗ СЫРЫ</b>                                                                       | 222 |
| <b>Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi. TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI</b>                                   | 227 |
| <b>Esayeva Dilafruz Azamatovna. ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI</b>                                            | 233 |
| <b>Sharipova Xumora Zayniddinovna. OLMOSHLARNING KONTEKSTDA QO'LLANISHI</b>                                                         | 236 |
| <b>Umarova Diafruz Razzakberdiyevna. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI</b> | 239 |

